ZAMONAVIY IQTISODIYOT SHAROITIDA MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISH MEXANIZMLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

[a]Mirzatillayev J.Z.
[a]Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

[b]Mamasidiqov X.A.
[b]Ekalogiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya: *Mazkur maqolada mehnat bozorining iqtisodiy mohiyati, shakllanish tamoyillari hamda zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilingan. Mehnat bozorining asosiy ishtirokchilari, talab va taklif munosabatlari, mehnat bozori turlari hamda uning faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, mehnat bozori statistikasining ahamiyati, asosiy ko‘rsatkichlari va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlashdagi roli o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari mehnat bozorini tartibga solish va aholi bandligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Mehnat bozori, bandlik, ishsizlik, mehnat resurslari, ishchi kuchi, mehnat taklifi, mehnat talabi, mehnat statistikasi, iqtisodiy faollik, migratsiya.*

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri inson kapitalidan samarali foydalanish hisoblanadi. Shu jihatdan mehnat bozori iqtisodiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ishchi kuchi va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim mexanizm vazifasini bajaradi. Mehnat bozori nafaqat aholining bandligini ta’minlash, balki mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, ijtimoiy barqarorligi va aholi turmush darajasini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, xalqaro mehnat migratsiyasining kengayishi hamda texnologik yangilanishlar mehnat bozorida yangi talab va tendensiyalarni shakllantirmoqda. Natijada mehnat resurslarini samarali boshqarish, ularning malakasini oshirish va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Mehnat bozori talab va taklif qonunlari asosida shakllanib, ishchi kuchining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta’minlaydi. Ushbu jarayonda bandlik darajasi, ishsizlik ko‘rsatkichi, ish haqi miqdori hamda iqtisodiy faollik darajasi kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli mehnat bozorining shakllanish tamoyillarini ilmiy jihatdan o‘rganish va uning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish zamonaviy iqtisodiyotning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi mehnat bozorining shakllanish tamoyillari, uning iqtisodiy mohiyati, asosiy tarkibiy elementlari va statistik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot metadalogiyasi: Mazkur tadqiqotda mehnat bozorining shakllanish tamoyillari, uning iqtisodiy mohiyati hamda mehnat bozori statistikasining ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot

jarayonida iqtisodiy nazariya, mehnat iqtisodiyoti va statistika fanlarining umumiy hamda maxsus tadqiqot usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini mehnat bozori, bandlik va ishsizlik masalalariga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida mehnat bozorining mazmun-mohiyati, tarkibiy elementlari va rivojlanish xususiyatlarini aniqlashda tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, mehnat bozorida talab va taklif munosabatlari, bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlarining shakllanish jarayonlarini o‘rganishda qiyosiy tahlil usuli qo‘llanildi. Statistik ma’lumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish orqali mehnat bozori statistikasi ko‘rsatkichlarining iqtisodiy mazmuni ochib berildi. Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, mehnat bozorining umumiy qonuniyatlari hamda ularning amaliy ahamiyati yoritildi.

Bundan tashqari, mehnat bozorining rivojlanish tendensiyalari, ishchi kuchining harakati va bandlik jarayonlarini baholashda statistik kuzatish, guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida mehnat resurslaridan samarali foydalanish, bandlikni oshirish va mehnat bozorini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Hozirgi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida mamlakatning barqaror va izchil rivojlanishini ta’minlashda mehnat bozori va aholi bandligining holati muhim omillardan biri hisoblanadi. Har qanday davlatning iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish quvvati va ijtimoiy barqarorligi, eng avvalo, uning inson resurslaridan qay darajada samarali foydalana olayotgani bilan belgilanadi. Bu jarayonda aholining mehnat faoliyatiga jalb etilishi, turli sohalarda ish bilan ta’minlanishi, mehnat muvozanati va taklif-istiqbollarning uyg‘unlashuvi alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mehnat bozorida yuz berayotgan o‘zgarishlarga moslashish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mehnat resurslarini qayta tayyorlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mehnat bozori - ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorining ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o‘rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi. Turli vositachi firmalar, tashkilotlar va agentliklar mehnat bozorining infratuzilmasini tashkil etadi. Ish kuchi maxsus tovar sifatida uning egasi tomonidan bozorga taklif etiladi. Ishga yollovchilar mehnat bozoriga talab bilan chiqadi. Ish kuchining oldi-sotdisi bevosita haridor bilan sotuvchi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki vositachilar ishtirokida yuz berishi mumkin. Bu ishni mehnat birjasi yoki ish topib beruvchi firmalar bajaradi. Ish kuchining oldi-sotdisi mehnat bitimi shaklida rasmiylashtiriladi. Mehnat bozorida ish kuchini sotuvchi bilan uni oluvchi o‘rtasida mehnatning kelishilgan narxi - ish haqidir. Mehnatga talab uning narxi bo‘lmish ish haqi miqdoriga nisbatan teskari mutanosiblikda, ya’ni ish haqi oshsa mehnatga talab qisqaradi, agar u pasaysa, mehnatga talab oshadi. Mehnat bozoridagi mehnat taklifi ish haqiga nisbatan to‘g‘ri mutanosiblikda bo‘ladi. Moddiy muhtojlik sharoitida ko‘p ishlab, ko‘p pul topishga intilish mehnat taklifini oshiradi.

Mehnat bozorida mehnatga talab taklifdan oshib ketsa ish kuchi taqchilligi, mehnat taklifi talabdan ko‘p bo‘lsa ishsizlik paydo bo‘ladi.

Mehnat bozorining turlarga ajralishi uning harakteri va ko‘lamiga bog‘liq. Mehnat bozori oshkora va yashirin harakterda faoliyat ko‘rsatishi mumkin. O‘z ko‘lamiga qarab mehnat bozori mahalliy-hududiy, milliy va jahon bozorlaridan iborat. Globalizatsiya sharoitida moddiy resurslarni mamlakatlararo taqsimlanishiga mos ravishda mehnat resurslari ham taqsimlangani sababli jahon mehnat bozori tez rivojlanadi. Iqtisodiyoti kuchli mamlakatlar milliy mehnat bozorida mirgantlar mehnati taklifi tez o‘sadi, narxi arzonligidan unga talab ham ortadi[2].

Har qanday bozorda sotuvchi va xaridorlar bo‘ladi, mehnat bozori esa bundan mustasno emas: bunda xaridorlar – ish beruvchilar, sotuvchilar esa ishchilardir. Bu ishtirokchilarning ba’zilari belgilangan vaqtda mehnat bozorida aktiv ishtirok etmayotgan bo‘lishi mumkin, ammo ixtiyoriy olingan har bir kunda ko‘plab korxona va tashkilotlar mehnat bozorida o‘zlariga ma’qul variantdagi ishchi va xodimlarni qidirib yurishadi. Doktorlar va mexanik injenerlar holatidagi kabi, xaridorlar va sotuvchilar butun xalq orasida bir-birini qidirib yursa, biz bu bozorni milliy mehnat bozori deb ataymiz. Agar xaridorlar va sotuvchilar o‘zlarining qidirish hududini faqatgina mahalliy hudud bilan cheklasa, bu mahalliy mehnat bozori deb ataladi. Biz tahlil qilayotgan barcha mehnat bozorlari tarmoqlarining turi, geografiyasi, transaksiya qoidalari va ish turiga ko‘ra juda chalkashgan bo‘ladi. Biz tasavvurni soddalashtirish uchun ularning barchasini bir mehnat bozorida deb tasavvur qilamiz. Agar kompaniya ichida ish bilan bandlik munosabatlari uchun alohida qoidalar belgilangan bo‘lsa, bunda ichki mehnat bozori shakllangan hisoblanadi. Har qanday mehnat bozorning kategoriyasidagi ishchilarning xususiyati va ularning soni muntazam ravishda o‘zgarib turadi. Ayni bir paytda bir kategoriyadan boshqasiga o‘tuvchi ishchilar miqdori xam juda ko‘p bo‘ladi. Mehnat bozorida 4 ta asosiy oqim bo‘lishi mumkin: Ish bilan band ishchilar o‘zlari ishlayotgan ishni tashlab ketib yoki undan haydalib ishsizlarga aylanishadi (ya’ni majburiy tarzda vaqtincha yoki butkul ishdan haydaladi). Ishsizlar esa yangidan ishga joylashib, yana ish bilan bandlikka erishadilar. Ishchi kuchi tarkibiga kirgan ishchilar esa ishsiz yoki ish bilan band ekanliklaridan qat’iy nazar, pensiyaga chiqish yoki shunchaki ishlashni xohlamaganliklari tufayli ishlab chiqarishda ish bilan bo‘lgan xodimlar toifasini tark etishi mumkin.

Hech qachon ilgari ishlamagan ishchilar o‘zlariga ish topish yoki uni qidirish orqali yana mehnat bozoriga kirishlari mumkin bo‘lmaydi. Aholining ishsiz qatlamining jami ishchi kuchiga nisbati aholining ishsizlik darajasini aniqlashda yordam beradi. Garchi bu darajada bir qancha noaniqliklar bo‘lsa ham, bu mehnat bozoridagi holatni o‘rganish uchun eng universal ko‘rsatgich hisoblanadi. Agar ishsizlik darajasi 7 foiz yoki undan ham yuqorilab ketsa,bu mehnat bozorining erkin ekanligidan dalolat beradi: bunda ishchilar uchun ish topish qiyinroq, ish beruvchilar uchun esa ishchilarni ishdan bo‘shatish va yangisini olish osonroq bo‘lib qoladi. Ammo mehnat bozorining erkin ekanligi barcha sohalarda ish topish qiyin ekanligidan dalolat bermaydi. Ba’zi hollarda ishsizlik darajasi yuqori bo‘lsa ham, ba’zi turdagi ishchilar uchun talab taklifdan oshiq bo‘lishi mumkin. So‘nggi yarim asr davomida, ba’zi turlardagi ish turlariga talab oshgan bo‘lsa, ba’zilariga talab qisqardi. Ishchilar va ish beruvchilar esa mehnat bozoridagi mana shunday o‘zgarishlarga muntazam ravishda moslashib borishlari kerak bo‘ladi[1].

Mehnat bozori ham xuddi boshqa bozorlar singari ishlaydi. Bir mehnat bozorlaridagi ham “ortiqcha taklif” o‘zi uchun boshqa mehnat bozorlaridan talabni izlaydi. Raqobatli mehnat bozori muvozanati firmalarga ishchilarni taqsimlash ishchi kuchi mahsulining umumiy qiymatini maksimal darajagacha oshiradi. Raqobatli mehnat bozorida ishchilar doimiy ravishda yuqori maoshli ish izlaydilar, firmalar esa arzonroq ishchilar izlaydilar. Ikki tomonning foydani maksimallashtirishga intilishlari jarayoni natijasida, shartli ravishda bir turdagi ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ishchilarning marginal mehnat mahsuloti qiymati firmalar va mehnat bozorlari bo‘yicha tenglashtiriladi. Shu tariqa ishchilar va firmalarning muvozanat taqsimoti samarali bo‘ladi. Boshqa biron bir taqsimot mehnatning yalpi daromadga qo‘shgan hissasi qiymatini bu kabi oshira olmaydi[3].

Mehnat bozorini tizimli tashkil etishda va uni boshqarishda, mehnat bozori statistikasi iqtisodiy tizimdagi ishchi kuchi resurslarining taqsimotini va uni samarali boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunday ma’lumotlar davlat siyosatining shakllanishiga, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Mehnat bozori statistikasi bir nechta turga bo‘linadi:

Bandlik statistikasi - bandlik statistikasi ishchilar sonini, ish bilan ta’minlangan aholini, turli sohalardagi ish o‘rinlari sonini o‘rganadi. Bandlik darajasi iqtisodiyotning rivojlanish darajasini ko‘rsatadi.

Ishsizlik statistikasi - bu ish qidirayotgan, lekin ishga joylashmagan aholi foizini ifodalaydigan ko‘rsatkichdir. Ishsizlik darajasi mehnat bozori holatini baholashda muhim rol o‘ynaydi. Bu ko‘rsatkich, iqtisodiy inqirozlar va ijtimoiy muammolarni oldini olishda ahamiyatli bo‘ladi.

Mehnat narxi - mehnat narxi ishchilarni yollash uchun sarflangan xarajatlar va ularning ish haqi orqali belgilanadi. Bu ko‘rsatkich mehnat bozori holatini ko‘rsatish bilan birga, ishchilarning daromad darajasini va mehnat bozoridagi raqobatni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi.

Ishchilarning ijtimoiy va demografik tahlili - bu statistik ma’lumotlar yordamida turli ijtimoiy guruhlar (yosh, jinsi, ta’lim darajasi, etnik guruhlar) orasida ish bilan ta’minlash darajasi va ish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ish haqining o‘zgarishi - ish haqining o‘rtacha o‘zgarishi va uning turli sohalardagi taqsimoti mehnat bozorining imkoniyatlari va muammolarini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich, iqtisodiy holatning barqarorligini baholashda ishlatiladi.

Mehnat bozori statistikalarining o‘lchovlari va metodologiyasi turli statistik metodlarni o‘z ichiga oladi. Eng keng tarqalgan metodlar quyidagilardir:

Ishsizlik darajasining hisoblanishi - ishsizlik darajasi o‘lchanayotganda, statistik usulda aktiv ish qidirayotgan aholi soni umumiy ish kuchiga nisbatan hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich davlat statistika idoralari tomonidan muntazam ravishda o‘lchanadi.

Bandlik darajasining hisoblanishi - ishga joylashgan aholi sonining umumiy ish kuchiga nisbati. Bu ko‘rsatkich yordamida mehnat bozoridagi ishchi kuchining ishlash holati baholanadi.

Aholining iqtisodiy faolligini o‘lchash - aholining iqtisodiy faolligini aniqlash, ish bilan ta’minlangan va ishga layoqatli aholi sonining umumiy aholi soniga nisbati orqali amalga oshiriladi.

Ish haqi statistikalari - ish haqi statistikalari, o‘rtacha ish haqi, ish haqining ijtimoiy guruhlarga taqsimoti va ish haqi o‘zgarishlari kabi ko‘rsatkichlarni o‘lchaydi.

Mehnat bozori statistikasining o‘rni iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda beqiyosdir. Mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi, ish bilanta’minlash darajasi va ish haqining adolatli taqsimlanishi uchun mehnat bozori statistikasining aniq va ishonchli ma’lumotlari zarur. Statistika orqali amalga oshirilgan tahlillar davlat siyosatining samarali shakllanishiga, mehnat bozori holatining yaxshilanishiga va aholi turmush sharoitlarining yaxshilanishiga olib keladi[4].

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozori iqtisodiyotning muhim institutsional tarkibiy qismi bo‘lib, ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifning o‘zaro muvozanatini ta’minlash orqali iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Mehnat bozorining samarali faoliyat yuritishi aholi bandligi darajasining oshishi, ishsizlikning kamayishi va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, mehnat bozori statistikasi bandlik, ishsizlik, ish haqi va iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlarini baholash imkonini berib, davlatning mehnat bozorini tartibga solish siyosatini ishlab chiqishda muhim axborot manbai hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish iqtisodiy barqarorlikning muhim shartlaridan biridir.

Kelgusida mehnat bozorining samaradorligini oshirish uchun mehnat resurslarining kasbiy malakasini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Artikov Z. Mehnat bozorining qisqacha tavsifi va mohiyati // Journal of Marketing, Business and Management (JMBM). – 2024. – T. 3, № 12. B. 4–28. – ISSN 2181-3000.].
2. Nabiyev A., Bannayev M. Mehnat bozori va aholi bandligi // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Ч. 42. – Т. 3. – С. 63–65. ISSN 3030-3680.
3. Rajabov G‘., Rahmonova M. Mehnat migratsiyasi jarayonlarining iqtisodiy mohiyati // Science and Education Scientific Journal. – 2024.–Vol.5,Issue 1. – B. 364–369. – URL:https://openscience.uz/index.php/sciedu]
4. Uralov Sh. Mehnat bozori statistikasi: tahlil, turlari va zamonaviy masalalar // Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar: Second International Scientific and Practical Conference of Science, Technology & Digital Finance. – 2024. – 6 dekabr. – B. 121.123.